

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BOSHQARUV

TIZIMINING SHAKLLANISHI VA UNING MAHALLIY JAMIYATGA

TA'SIRI (1867–1917)

Xayrillo Yo'lchiyev Mahmudillo o'g'li,
Namseoul Universiteti , 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimining tuzilishi, asosiy funksiyalari va ularning mahalliy ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, rus harbiy-amaldorlarining siyosati va mahalliy elita bilan munosabatlari tarixiy manbalar asosida o'r ganiladi

Kalit so'zlar:

Turkiston general-gubernatorligi, Rossiya imperiyasi, boshqaruv tizimi, mahalliy jamiyat, mustamlaka siyosati, XIX asr, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi o'zining geosiyosiy manfaatlarini ko'zlab, Markaziy Osiyo hududlarini bosib olish siyosatini kuchaytirdi. Natijada, 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi imperiyaning janubiy mustamlaka markaziga aylandi. Bu boshqaruv shakli nafaqat siyosiy va harbiy nazorat vositasi, balki Rossianing iqtisodiy va madaniy siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qildi. Ushbu maqola aynan shu boshqaruv tizimining shakllanishi va mahalliy jamiyatga ta'sirini o'r ganishga qaratilgan.

1. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi

Rossiya imperiyasi 1865-yil Toshkentni bosib olgach, mintaqani to'liq nazorat qilish maqsadida 1867-yil 11-iyulda "Turkiston general-gubernatorligi" tashkil etdi. Markazi Toshkent shahrida joylashgan bu tuzilma to'g'ridan-to'g'ri imperatorga bo'yusungan bo'lib, unga quyidagi viloyatlar bo'ysundi:

Farg'on'a viloyati

Samarqand viloyati

Sirdaryo viloyati

Zarafshon okrugi (vaqtı-vaqtı bilan)

Yettisuv viloyati (keyinchalik Qo'shilgan)

Birinchi general-gubernator Konstantin Petrovich Kaufman bo'lgan. U mintaqada Rossiya siyosatini joriy etishda muhim rol o'yagan

2. Boshqaruv tuzilmasi va vakolatlar

Turkiston general-gubernatorligi harbiy-boshqaruv tizimiga asoslangan bo'lib, uning boshida general-gubernator turardi. Viloyatlarda harbiy gubernatorlar, uyezdlarda (tumanlarda) esa uezd boshlig'ilar faoliyat yuritgan. Ular quyidagi vakolatlarga ega bo'lgan:

Mahalliy boshqaruv organlarini nazorat qilish

Sud tizimiga aralashish

Soliq yig'imi va iqtisodiy faoliyatni boshqarish

Madaniy-ma'rifiy siyosatni nazorat qilish

3. Mahalliy jamiyat bilan munosabat va mustamlaka siyosati

Rossiya imperiyasi mahalliy aholining boshqaruvda ishtirokini cheklab qo'ygan bo'lsa-da, ayrim hollarda "qozilar", "oqsoqollar", "mingboshi" kabi lavozimlarni saqlab qolgan. Bu esa Rossiyaga mahalliy elita orqali boshqaruvni amalga oshirish imkonini bergen. Shu bilan birga, imperiya madaniy assimilyatsiya (ruslashtirish) siyosatini olib bordi:

Rus maktablari ochildi, lekin mahalliyalar soni kam edi.

Sud tizimida shar'iy qonunlar sekinlik bilan cheklab borildi.

Mahalliy tilda chiqadigan matbuot nazorat ostiga olindi.

4. Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar

Turkiston general-gubernatorligi davrida jamiyatda quyidagi asosiy o'zgarishlar ro'y berdi:

Ijtimoiy tabaqlanish kuchaydi: rus amaldorlari va mahalliy elita orasidagi tafovut ortdi.

Jadidchilik harakati vujudga keldi – bu yangi turdag'i ta'l'm va ijtimoiy uyg'oni shning natijasi edi.

Noroziliklar kuchaydi: 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni, 1916-yilgi qo'zg'oloni Rossiya siyosatiga javob sifatida yuz berdi.

Xulosa

Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining eng yirik mustamlaka boshqaruv tuzilmalaridan biri bo'lib, uning faoliyati Turkiston jamiyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Harbiy-boshqaruv tizimiga asoslangan bu model mahalliy boshqaruvni cheklab, Rossiya siyosatining ustuvorligini ta'minladi. Mazkur davr tarixini o'rganish mintaqaning keyingi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История Туркестана. – Ташкент: Фан, 1990.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. – Москва: Восточная литература, 1964.
3. Зияев Ш. З. Мустакиллик ва Туркистон тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
4. Абдурахимов А. Туркистон генерал-губернаторлиги даври тарихи. // Тарих ва хаёт. – 2020, №4.
5. Saidov A. The Russian colonial policy in Central Asia. – Journal of Central Asian Studies, 2021.